

PUBLITSISTIK MATNDA MUALLIF KATEGORIYASINING ADABIY-ESTETIK OMILLARI

Latofat TOSHMUHAMMEDOVA

professor

filologiya fanlari nomzodi

O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

Ushbu maqolada jurnalistika va filologiya sohasida dolzarb mavzulardan biri bo‘lgan muallif kategoriyasi, o‘z ijodiga bo‘lgan munosabati, qahramonlari ichki dunyosini ochib berishdagi o‘ziga xos usullari, publitsistik materialda til va uslubning o‘ziga xos qo‘llanishi haqida so‘z yuritilgan.

Tayanch so‘zlar: publitsistika, badiiy publitsistik, esse, maqola, publitsistik ruh, til, uslub, adabiy-tanqidiy qarashlar.

ЛИТЕРАТУРНО-ЭСТЕТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ КАТЕГОРИИ АВТОРА В ПУБЛИЦИСТИЧЕСКОМ ТЕКСТЕ

Латофат ТАШМУХАММЕДОВА

профессор

кандидат филологических наук

Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

Аннотация

В данной статье рассматривается категория автора, являющаяся одной из актуальных тем в области журналистики и филологии, его отношение к своему творчеству, уникальные методы раскрытия внутреннего мира его героев, своеобразное использование языка и стиля в публицистическом материале.

Ключевые слова: публицистика, художественная публицистика, эссе, статья, публицистический дух, язык, стиль, литературно-критические взгляды.

Taniqli yozuvchi, jamoat arbobi, filologiya fanlari doktori, professor Xurshid Do‘stmuhammad – zamonaviy o‘zbek publitsistikasining yetuk vakilidir. Uning serqirra ijodi ijtimoiy-falsafiy, lingvistik, lingvouslubiy nuqtai nazardan o‘rganilishga loyiq mohiyati bilan alohida ajralib turadi.

Yozuvchining o‘tkir falsafiy qiymatga ega va zamonaviy publitsistikaning yuksak namunasi bo‘lgan esselari va sermazmun maqolalarini o‘qigan kitobxon hayratga tushadi. Xurshid Do‘stmuhammadning qalamida ona tilimiz hazinasidagi har bir so‘z yangidan-yangi qirralarini namoyon etadi va falsafiy

mazmun-mohiyat kasb etadi. S.Qurbonova to'g'ri ta'kidlaganidek: "Xurshid Do'stmuhammad o'z ijodida, badiiy publitsistikasida G'arb va Sharq adabiyoti, falsafasi, dunyoqarashini sintez qiladi. Shunday tamoyil asosida shaklan va mazmunan yangi asarlar yaratishga urinadi" [8].

Ijodkorning o'ziga xos publitsistikasida o'zbek adabiy tilining mukammal tuzilgan jumalari, izlanishlar ruhi ila kiritilgan iboralar, so'z va gap qurilishlarining adabiy-uslubiy va me'yoriy tuzilishlari oshno tutinadi. Demak, tilga olingan bu xususiyatlar adib publitsistikasini turli lingvistik aspektda o'rganish zarurligini taqozo qiladi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak yozuvchi publitsistikasi muammosi jahon, rus va o'zbek adabiyotshunosligida etik, estetik va jurnalistik aspektlarda o'rganilgan. Jumladan, Ye.V.Jurbina, M.S.Cherepaxov, V.V.Uchyonova, M.I.Styuflyayeva, Ye.Proxorov, V.I.Zdorovega, L.G.Kayda, B.Karimov, M.Xudoyqulov, L.Tashmuxamedova kabi adabiyotshunoslarning publitsistika nazariyasi, janrlar tipologiyasi, gnoseologiya muammolari, publitsistik tafakkur genezisi xususida tadqiqotlari mavjud.

O'zbek adabiyotshunosligida XX asr o'zbek publitsistikasining shakllanishi va takomil tamoyillari, nazariyasi, mavzu ko'lami, uslubiy xususiyatlari, janrlari kabi masalalar umumnazariy va individual o'rganilgan.

Ijod nima, ijodkor kim, degan savolga XII asrda yashagan ulug' o'zbek mutafakkirlaridan biri tarixchi, faylasuf, shoir, hakim Nizomiy Aruziy Samarqandiy o'ziga xos javob beradi. "She'riyat shunday san'atki,– deydi u "Chahor maqola" asarida,– bu san'at yordamida shoir o'zining tasavvurlarini qo'zg'atib, haqiqiy fikrlarini boshqacha tarzda birlashtirib, kichikni ulkanga, ulkan narsalarni esa kichik narsalarga aylantiradi. Go'zal narsalarga xunuk libos kiydiradi, xunuk narsalarga go'zal qiyofa baxsh etib, yaraqlatib ko'rsatadi. G'azab-nafrat va kishi hissiyotlari kuchi ta'sirida odamlar yo jazavaga tushadilar yohud g'amginlikka cho'kadilar va shu hollar dunyoda ulug' ishlarga sabab bo'ladi". To'g'ri, Aruziy bu fikrlarni deyarli o'n asr oldin aytib o'tgan, bundan tashqari matn orasida "shoir" deya ta'kidlanadi. Biroq yaxshiroq nazar solinsa,

“shoir” so‘zi o‘rniga “adib” va yoki “ijodkor” so‘zlaridan biriga almashtirish mumkin va bu holatda mutafakkir so‘zlarining naqadar haqiqat ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Tabiiyki, uning aytganlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qilib bo‘lmaydi, u bunda ijodkorning naqadar ulkan kuchga ega ekanligini, u asarlari tufayli o‘quvchi kayfiyatiga ta’sir etishi mumkinligini alohida ta’kidlamoqda. Chindan, ijodkor real hayotni (yoki o‘z fantaziyasini) o‘quvchiga ko‘zgudagi kabi ko‘rsatar ekan, uning ruhiy barqarorligiga ta’sir etadi, kayfiyatini ko‘taradi, tushiradi, qandaydir g‘oya tomon safarbar etadi. Bu, albatta, ijodi natijasi – asariga mahorat bilan singdirilgan fikrga bog‘liq.

Badiiy publitsistika matbuot janrlariga xos aktuallik, operativlikni o‘ziga singdirgan eng hozirjavob janrdir. Shu bilan birga badiiy publitsistika o‘ta ta’sirchan yo‘nalish hamdir. Uning ta’sirchanligi birinchi navbatda, badiiy adabiyot unsurlaridan erkin foydalanishida ko‘rinadi. Badiiy publitsistika mantiqiy muhokama va obrazlar orqali ta’sirchanligini oshirishda so‘z san’ati, fikr poeziyasiga ega. Badiiy publitsistik g‘oyalarning mohiyatini, uning jozibali poetikasini o‘rganish, tajribalarini nazariy umumlashtirish janrlar tasnifining ta’sirchanligini oshiradi.

O‘zbek publitsistikasi tarixining boshlanishi, tadqiqotlarga ko‘ra 1870-yillarda “Turkiston viloyatining gazetasi”ning chop etila boshlagan davridan hisoblanadi.

O‘zbek badiiy publitsistikasi va unga xos qator masalalar quyidagi yo‘nalishlarda tadqiq etilganini kuzatish mumkin: XX asr o‘zbek publitsistikasining shakllanishi va takomil tamoyillari, nazariyasi, mavzu ko‘lami, uslubiy xususiyatlari, janrlari masalasi M. Husainov, O.Saidov, R. Muhammadiev, T.Pidaev, O.Tog‘aev, M. Xudoyqulov, B. Jamilova ishlarida o‘rganilgan. Matbuot sahifalari asosida jurnalist publitsistikasining rivojlanish tamoyillari Q.U.Pardaev tadqiqotida o‘rganilgan. Adabiyotshunos O. Tog‘aev esa badiiy publitsistikaga xos nazariy masalalarni, ocherk janri, unda hayot manzaralarining aks etishi, badiiy publitsistikada davr va qahramon muammosini o‘rganadi. M.Xudoyqulov o‘zbek hajviy publitsistikasining

shakllanish tamoyillarini XIX asr oxiri va XX asr o'rtalari o'zbek matbuoti materiallari asosida kuzatadi. Ikkinchi yo'nalishni tashkil etgan M.Hasanov tadqiqotida S.Ayniy publitsistikasining g'oyaviy-badiiy jihatlari tadqiq etilsa, A.Abdimuratovning ilmiy ishida qoraqalpoq yozuvchisi T.Qayipberganov publitsistikasining mavzu, janr, uslub xususiyatlari o'rganiladi. T.Choriev o'z nomzodlik ishida S.Ayniy publitsistik asarlarining tili va uslubini kuzatadi. Tadqiqotchi o'z oldiga qo'ygan aniq maqsad va vazifalardan kelib chiqib, S. Ayniy publitsistik asarlarining leksik va frazeologik, uslubiy xususiyatlarini aniqlab, shu asosda adibning publitsistik mahorati va tojik adabiy publitsistik uslubining shakllanishidagi o'rnini ko'rsatib beradi. S.S. Yo'ldoshbekova Cho'lponning jurnalistika sohasiga kirib kelish jarayonini kuzatib, publitsistik asarlarning yaratilishi, ularda ilgari surilgan muhim mavzu va g'oyalarni, adibning publitsistik, jurnalistik mahoratini tahlil etadi. N.K. Namozova esa o'z nomzodlik ishida Hoji Muinning jurnalistlik va muharrirlik faoliyatini tadqiq etishni maqsad qilib olgan. Tadqiqotchi ishda Hoji Muin qalamiga mansub publitsistik materiallarni jamlab, mavzu jihatdan tasnif etadi, adibning ijtimoiy-siyosiy, madaniy, ma'rifiy, mavzudagi maqolalarini tarixiylik prinsipi asosida tahlil qilib, Hoji Muin publitsistikasiga xos individual xususiyatlarni ochib berishga harakat qiladi. L.Toshmuhamedova "Abdulla Qodiriyning adabiy-estetik qarashlari" mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyasida yozuvchining "Kichik asarlar"iga kiritilgan adabiy-tanqidiy maqolalarni tadqiq etgan. D.Ne'matova yuqoridagi tadqiqotlardan farqli ravishda Cho'lpon publitsistik asarlarining lingvistik jihatini tahlil etadi. Uchinchi yo'nalishni tashkil etgan Q. U. Pardaevning tadqiqotida Milliy uyg'onish davri manbalarida adabiy va publitsistik muammolar talqini ko'rsatib berilgan. U "Al-Isloh" jurnali materiallari asosida adabiy bahslarga oid maqolalar mohiyatini mavzu, janr xususiyatlari jihatidan tadqiq etadi.

Ko'rinadiki, yozuvchi publitsistikasi va adabiy-tanqidiy qarashlariga e'tibor XX asr boshida yashab ijod etgan jadid ziyolilarining jurnalistlik faoliyatini o'rganishdan boshlangan. Publitsistik tadqiqot muammo va

materialni chuqur o'rganish natijasida kelib chiqadi. Mashhur psixolog S. L. Rubinshteyn "Gapirish – fikr qilish degan gap emas... Fikr qilish o'rganish demakdir" deb yozadi. V. G. Belinskiy san'at bilan fan uslubi haqida shunday deydi: "Biri isbotlaydi, ikkinchisi ko'rsatadi va ikkilasi ham ishontiradi, faqat biri mantiqiy dalillar orqali, ikkinchisi esa, manzaralar orqali". Aynan mana shu fikrlardan kelib chiqqan holda Xurshid Do'stmuhammad ijodi, uning adabiy-estetik qarashlarini imkon qadar o'rganishga harakat qilamiz.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'quvchilarining tafakurrini boyitish, uning dunyoqarashini kengaytirish, shuningdek, estetik zavqini oshirishda yozuvchi publitsistning ta'siri, qanday mahoratga ega ekanligiga ham muhim o'rin tutadi. Ilmiy tadqiqotlarda har bir muallifning publitsistik ijodga qanday yondoshganligi, ular ijtimoiy hayotni publitsistik nuqtai nazardan qay tarzda talqin qilgani yoritilgan. Badiiy publitsistikada mantiqiy muhokama va obrazlar orqali ta'sirchanlikni oshirishga erishiladi. Fikrlar mushohadalanadi. G'oyalar mohiyati poetika orqali jozibalashtiriladi. Bunda publitsist mohir so'z ustasi bo'lishi zarur. U so'zlarga inja berayotganda, u yoki bu muammo yuzasidan o'zining fikrlarini yetkazadi. Publitsist albatta ommaga nima maqsadda murojaat etayotganini bilishi lozim. Publitsist aytayotgan fikr omma uchun muhim bo'lishi kerak. Darhaqiqat, maqolalarda jurnalist, yozuvchi-publitsistning bildirayotgan fikrlari ijtimoiy hayotga tegishli.

Publitsistika – (lot. "publikus" – ijtimoiy) davrning ijtimoiy-siyosiy va boshqa dolzarb masalalriga bag'ishlangan adabiy ijod turi. Ya'ni publitsistika insoniyat ijtimoiy hayotini faol aks ettirishi, o'zida falsafa, tarix, iqtisod, siyosat, psixologiya, san'atshunoslik, estetika va adabiyotshunoslik unsurlarini mujassamlashtirishi bilan universiallik kasb etadi. Shuning uchun ham unga yozuvchi, shoir va olimlar, hatto ijodkor bo'lmaganlar ham tez-tez murojaat qiladilar. O'tmishda turli kasb egalarining publitsistik yo'nalishda ijod qilganlari ma'lum.

Publitsistika zamona tarixidir. Zamonning ko'z-qulog'i, ovozi, qalb-vidoni hisoblangan yozuvchi – publitsist davr talabiga hammadan ko'ra ko'proq

javob bera oladigan eng zarur janrga hamma vaqt murojaat qilib keladi. Hozirjavoblik va davrga hamohanglik publitsistikaning muhim xususiyatlaridandir.

Rus olimasi M.I.Styuflyaevaning fikricha: “Publitsistik ijod ijtimoiy-siyosiy faoliyat sifatida namoyon bo‘lib, o‘z oldiga faqat o‘quvchilar va tinglovchilarga axborot berish, ularni mafkuraviy jihatdan tarbiyalash vazifasini qo‘ymaydi, balki ularning ijtimoiy faolligini oshirishni ham ko‘zda tutadi. Aynan shu tarzda u ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishning eng qisqa yo‘llarini ko‘rsatib beradi” [5]. Olimaning ushbu fikrlari publitsistika haqida gap ketganda o‘zini to‘la oqlaydi. Lekin uni badiiy publitsistikaga nisbatan to‘liq tatbiq qilish noo‘rin. Chunki badiiy-publitsistik asar muallifi o‘z ijodiy mahsulini ommaga taqdim etar ekan, o‘quvchi e‘tiborini faqatgina o‘sha davr uchun dolzarb hisoblangan ijtimoiy-siyosiy masalalarga qaratish bilan cheklanmaydi. Balki asarida ijtimoiy hayot muammolaridan ko‘ra kengroq va chuqurroq, umummilliy va umuminsoniy muammolarni ko‘tarishga harakat qiladi.

Publitsistika keyingi yillarda yuqori bosqichga ko‘tarildi. Xurshid Do‘stmuhammad, Erkin A‘zam, Sul-tonmurod Olim va boshqalar o‘zlarining dolzarb publitsistik maqolalari bilan o‘zbek publitsistikasiga munosib hissa qo‘shib kelmoqda. Darhaqiqat, Xurshid Do‘stmuhammad o‘ziga xos publitsistik uslub va yo‘nalish topa olgan, publitsistik asarlarini san‘at darajasiga ko‘targan. Uning publitsistik asarlari davr kishisining ruhiyatidan o‘tayotgan evrilishlar bilan uyg‘unlashgan ma‘naviy-ma‘rifiy, siyosiy, ijtimoiy, tanqidiy va tahliliy masalalarning kengroq yoritilishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Yozuvchining qalamiga mansub asarlari uslubining biroz murakkabligi va shaklan noan‘naviyli-gi bilan kitobxonni ko‘proq o‘ziga tortadi va uni mulohaza yuritishga undaydi. Asarning tub mohiyatini esa o‘quvchi hamisha ham tezda anglab olishi qiyin. Bu haqida yozuvchining o‘zi shunday deydi: “Birovning boshiga nuqib asarni uqdirish qiyin, qolaversa, niyatimni, o‘zim ko‘zda tutgan mohiyatni o‘quvchi uqadigan qilib yozolmagan ekanman, ayb o‘zimda. Afsus, fe‘lim-tabiatimga ilg‘ash mushkulroq yo‘sinda yozish yo‘sini

ravo ko‘rilgan ekan, bilasiz, uni (uslubni) o‘zgartirish uchun qayta tug‘ilmoqdan o‘zga chora yo‘q...” [7].

Publitsistikaning asosiy vazifalaridan biri – jamoatchilik fikrini shakllantirishdan iborat. Bunda publitsistikaning barcha turlari va janrlari ishtirok etadi. Jamoatchilik ongiga ta’sir o‘tkazish publitsistik materialning asosini tashkil etadi. Publitsistika – shu kungi voqea, hodisa va muammolarni shu kungi jamiyatga, o‘quvchilarga yetkazish, jamoatchilik fikriga havola etish, bu fikrni shakllantirish va nihoyasiga yetkazish demakdir. Publitsistikada muammo ko‘ndalang ya’ni aniq faktlar asosiga qurilsa, badiiy publitsistikada bu ko‘rinish bevosita badiiy vositalar orqali sayqallangan holda taqdim etiladi.

Filologiya fanlari doktori, prof. Muxtor Xudoyqulov ta’kidlaganlaridek: “Hozirgi zamon o‘zbek publitsistlaridan A.Meliboev, X.Do‘stmuhammedov, Q.Norqobil va boshqalarning ijtimoiy va madaniy-ma’rifiy hayotning turli masala va muammolari bo‘yicha jamoatchilik fikrini uyg‘otish borasidagi xizmatlari e’tiborga molik” [6].

Xurshid Do‘stmuhammadning hamisha o‘z aytadigan so‘zi va va bu so‘zni ifoda qilish uslubi bor. Adib “Najot nafratdami yo... muhabbatda” maqolasida o‘zbek xalqi tabiatiga xos nozik bir nuqta xususida tahliliy fikr yuritadi. Bu nuqtani ko‘rsatish uchun o‘zbekning donishmand yozuvchisi, akademik G‘afur G‘ulomning mashhur “Mening o‘g‘rigina bolam” va yapon yozuvchisi Akutagava Ryunoskening “Rasyomon darvozasi” nomli hikoyalarini o‘zaro qiyoslaydi. Bu qiyoslash nihoyatda tabiiy va u o‘quvchini befarq qoldirmaydi. Natijada, o‘zbek xalqining hatto o‘g‘riga ham bag‘rikenglik bilan munosabatda bo‘la olishi adibning qalamida o‘zining mantiqan ifodasini topadi. Adib ikki millatga xos bo‘lgan milliy qadriyatlarni qiyoslar ekan, odamdan har qanday holatda ezgu so‘z va ezgu fikr qolishi kerakligi, nafrat yovuzlikni, mehr-muhabbat esa ezgulikni keltirib chiqarishi mumkinligini ta’kidlab, umumfalsafiy va umuminsoniy xulosaga keladi: “Bir so‘z bilan aytganda, “Rasyomon darvozasi”da muhtojlik inson tabiatidagi yovuz maylni qo‘zg‘atib yuborishi, “Mening o‘g‘rigina bolam”da esa eng qattol uqubatlar ostida ham

inson o'zligini asrab qolishi mumkinligi tasvirlangan. Yapon hikoyasida sharoit insonni muvozanatdan chiqaradi, o'zbek hikoyasida esa ayni shunday holat insonni yanada insoniyroq bo'lishga da'vat etadi" [6].

Darhaqiqat, "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasining har bir jumlasida milliy ruh va milliy qadriyatlar, o'zbek xalqiga xos bo'lgan yuksak fazilatlar balqib turadi. "O'g'rigina bola" kampir bilan dardlashayotib, beixtiyor ichki mehrni his qiladi. Shuning uchun barcha xavf-xatarni, uyda och yotgan bola-chaqasini ham bir lahzaga bo'lsa da unutadi, tom boshiga choponni to'shab, yonboshlab oladi va chin yurakdan hasratlashadi. Uning el-yurt orasida badnom bo'lishdan qo'rqishida ham, kampirga qarata: "Juda yuzimni sidirib tashlaganim yo'q, andisham bor, uyalaman" deyishida ham dunyodagi biror-bir millatga emas, aynan o'zbek xalqiga xos fe'l-atvor aks etadiki, buni Xurshid Do'stmuhammad o'ta nozik ilg'agan va juda o'rinli talqin etgan. Maqola so'ngida publitsistik yakun – xulosa chiqarishda muallifning milliy pozitsiyasi yana bir bor namoyon bo'ladi va u o'zining samimiyati va haqqoniyligi bilan kitobxonni hayratga soladi: "Ha-huv deguncha bu kunlar ham unut bo'lib ketadi, deb tasalli beradi o'g'rigina bola kampirga". Xurshid Do'stmuhammad publitsistikasida milliy tafakkurni umuminsoniy tafakkur bilan mushtarak idrok etishga va bu tamoyilni aynan shunday o'quvchiga anglatish uchun moyillik kuchli. Ammo bu xususiyat adib publitsistikasining milliy, o'zbekona bo'lishiga xalal bermaydi, aksincha, o'quvchini o'ziga ko'proq tortadi va asarlaridagi falsafiy ruhni oshiradi.

Xurshid Do'stmuhammad ruhan hamisha yangilikka tashna, u Sharq adabiyotini nozik his qiladi va G'arb adabiyotini chuqur biladi. Uning mutolaa ta'sirida yaratilgan bir qancha badiiy-publitsistik esse va maqolalari buning yorqin misolidir. Yozuvchining "Harakatdan to'xtagan jarayon" qissasi, yoxud "Qalb shuurining olis kengliklari safariga eltuvchilar" nomli essesi "Jahon adabiyoti" jurnalida Frans Kafkaning "Jarayon" romanining o'zbekcha tarjimasi e'lon qilinishi munosabati bilan yozilgan. Bu essenini adabiy-ilmiy, badiiy-publitsistik esselar sirasiga kiritish mumkin. Adib Kafka haqida "tafakkuri

g'ayritabiiy" deb yozadi, shu sababli Kafka yaratgan asar ham, undagi obrazlar ham boshdan-oyoq g'ayriodatiy ekanini ta'kidlaydi: "Jarayon" bir o'tirishda, bir kechada o'qiladigan roman emas. Uni o'qish xiyla qiyin. Bir bob o'qib, orqaga qaytishingiz, xayol qochib, o'qiyotgan tafsilotlaringizni tushunmay qolishingiz, gap nima haqida borayotganini ilg'ashga qiynalib, kalavaning uchini yo'qotib, qo'yishingiz hech gap emas. Jumla tuzilishi, gap qurilmasi, fikrni ifoda etish uslubi ezmalikka, mijg'ovlikka moyil. Boshqacha, o'zgacha, g'alati. "O'zgacha", "g'alati" sifatleri "Jarayon"ningina emas, adibning butun ijodiga eng ixcham va lo'nda ta'rif deyish mumkin (adibning kundaliklarida "Yozganlarim ham g'alati" degan jumla keladi). G'ayritabiiy holat, g'ayritabiiy tasvir, g'ayritabiiy odamlar obrazi. Chunki adibning, adib shaxsining, Frans Kafka degan inson zuvalasining o'zi g'ayritabiiy. Shularning mahsuli o'laroq, yozuvchining badiiy tafakkuri g'oyatda g'ayritabiiy ekanligidan sira ajablanmasa ham bo'ladi" [2].

Yozuvchi publitsistikasida suhbat janri ham alohida o'rinni egallaydi. "Suhbat janri mavzu jihatidan ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab oladi. Unda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ishlab chiqarish, madaniy-ma'naviy, fan-texnika, adabiyot va san'at, sport va boshqa barcha ijtimoiy sohalar o'z ifodasini topadi" [6]. Shunindek, suhbatning interv'yu janridan farqli tomoni shundaki, u ikki yoki undan ortiq kishilarning erkin fikr-mulohazalari asosida quriladi. Intervyuda esa fikr almashish o'zaro savol-javob asosiga quriladi. Suhbat janrida tabiiylik va jonlilik xususiyatlari bosh planga ko'tariladi. Bunda ikki tomon tafakkuri bir-biriga yaqin turishi kerak. Shundagina qiziqarli, aniq, mushohadali adabiy mahsul shakllanishi, muammolarga qaysidir ma'noda yechim topishga erishish mumkin. Xurshid Do'stmuhammad suhbatlari falsafiy, umuminsoniy muammolarni tahlil etishga qaratilgani bilan ajralib turadi. U suhbat asnosida suhbatdoshining erkin fikr bildirishiga keng yo'l qo'yib beradi. Xususan, yozuvchining "Ma'naviy tarsaki og'rig'i" (suhbatdosh – Abduqayum Yo'ldoshev), "Adabiyot – ko'ngil bayrami" (Suhbatdosh – Nurilla Chori), "Muallif nuqtai nazari tahlilda ko'rinadi" (Suhbatdosh – Saida Qurbonova)

hamda “Adabiyot yo‘q degani – hayot to‘xtadi degani!” (Suhbatdosh – Husan Nishonov) deb nomlangan qator suhbatlarida ana shu jihatlar yetakchilik qiladi. Suhbatlar jiddiy mavzularda bo‘lib, bugungi kunda adabiyot olamida ko‘zga tashlanayotgan qator muammolar, yangicha yo‘nalishlar, badiiy-publitsistik ijodda muallif nuqtai nazarining o‘rni masalalariga qaratiladi. Jumladan, “Adabiyot yo‘q degani – hayot to‘xtadi degani!” nomli suhbatda muxbirning “sizni adabiy tanqidchi sifatida ham bilamiz. Bugungi adabiy jarayonga tanqidchi sifatida bahoingiz?” degan savoliga yozuvchi shunday javob qaytaradi: “Adabiy tanqidchilikdan ko‘nglim to‘lmayapti. Mavzu g‘ij-g‘ij, bahstlab muammo istagancha topiladi, ularni nega yozmaymiz, matbuot sahifalariga olib chiqmaymiz – sira tushunolmayman. Aksariyat jamiyat boshidan kechirayotgan o‘tish davri o‘tsin, keyin asar yaratamiz, tanqidchilik qilamiz, degan gaplar quloqqa chalinib qoladi. Afsuski, bunday kayfiyatdagi odam o‘tish davri bilan birga o‘zi ham yoshini yashab qo‘yishini, keyin kech bo‘lishini xayoliga keltirmaydi...” [3].

Mazkur suhbatdagi fikrlar avvalo o‘zining xolisligi bilan o‘quvchining e‘tiborini tortadi. Unda Xurshid Do‘stmuhammad asarlarida falsafiy ruh ustunlik qiladigan ijodkorgina emas, balki xalqi uchun qayg‘urayotgan fidoyi farzand va qalbi uyg‘oq olim sifatida namoyon bo‘ladi. Yozuvchi publitsistikasida taqqoslash xususiyatlari ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, G‘arb va Sharq adabiy muhiti, ularning “mahsulotlarini” qiyosiy tahlil qilish Xurshid Do‘stmuhammad ijodiga xos o‘zgacha yo‘nalishning mavjudligi bilan izohlanishi mumkin. “Muallif nuqtai nazari tahlilda ko‘rinadi” sarlavhali suhbatda “Ko‘pgina maqolalaringizda Sharq va G‘arb dunyosini yoki Sharq va G‘arb adabiyotini qiyosiy o‘rgangansiz, ularni taqqoslab, muammolar mohiyatini tahlil va tadqiq etgansiz. Bunday badiiy publitsistik uslubda ijod qilishingizning sababi nimada?” degan savolga u shunday javob qaytaradi: “Juda oddiy, jo‘n holatlarni kattaroq, kengroq rakursda ko‘rishga harakat qilib ko‘raylik. Bir holatga o‘zbek qanday yondashadi, qozoq, rus, ingliz, yapon-chi, degan savolga javob izlaylik, juda qiziq xulosalar chiqadi. Masalan Balzakning

Gobsegi, Ayniyning Qori Ishkambasi, Qodiriyning Solih Maxdumini bugungi hayot talablaridan kelib chiqib tahlil qilaylik, favqulodda chiqishi muqarrar. Yapon yozuvchisi Akutagava Ryunoskening “Rasyomon darvozasi” asari bilan G‘afur G‘ulomning “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasini qiyoslashga harakat qildim. Ehtimol, bular bir-biridan yiroq asarlardir, lekin ularni chog‘ishtirish mumkin bo‘lgan yaqinlik topildi. Badiiy xulosa ham, publitsistik xulosa ham, hayotiy xulosa ham boshqacha kutilmagan yechimlar berdi nazarimda” [9].

Xurshid Do‘stmuhammad publitsistikasidagi asosiy yo‘nalishlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

Tarixiy shaxslar haqidagi maqola va esselar.

Ijtimoiy, ijtimoiy-siyosiy masalalar haqidagi maqola va esselar.

Adabiy-badiiy muammolar haqidagi maqola, esse va suhbatlar.

“Esse – (fran.– intilish, tajriba; lot. – tortish, chamlash, tortib ko‘raman) biror-bir mavzuni olib talqin qiluvchi, unga aloqador shaxsiy taassurotlar va mulohazalarni bayon etish, tasvirlashga intiluvchi, uncha katta bo‘lmagan, erkin kompozitsiyali nasriy asardir” [10].

O‘zbek adabiyotida S.Ahmad, P.Qodirov, O.Sharafiddinov, E.Vohidov, I.G‘afurov, Sh.Xolmirzaev, X.Do‘stmuhammad kabi yozuvchi va olimlarimiz ijodida essening ajoyib namunalari yaratildi. Xurshid Do‘stmuhammad publitsistikasidagi esselarni badiiy publitsistikaning o‘ziga xos nodir namunasi sifatida talqin qilish mumkin. Zero, prof. Umarali Normatov ta‘biri bilan aytganda: “Esselar qahramonlari muallifga shaxsan tanish, dildan yaqin shaxslar bo‘lganligi sabab, ayni o‘sha shaxsiy dahldorlik, yorqin xotiralar asarga ajib samimiyat baxsh etadi, bu asarlar sahifalaridan zamondosh allomalarining siymosi butun ulug‘ligi va qudrati bilan ko‘z oldingizda gavdalanadi, ular xuddi badiiy asar kabi shavq bilan o‘qiladi” [4]. Xususan yozuvchi “Qalb hamisha o‘rtada” nomli essesida taniqli adabiyotshunos olim Ibrohim G‘afurov fenomenini shunday tasvirlaydi: “Ibrohim G‘afurov tahlil qilishga, hatto ikki og‘iz so‘z aytishga kirishgan har qanday ijodkorni, avvalo *qalbiga yo‘l izlaydi*. Izlaganda ham o‘zi topgan, o‘zi

kashf etgan yo‘llardan yuradi va boshqalar anglamagan yoki anglab ulgurmagan nimanidir topadi”.

Bundan ayon bo‘ladiki, yozuvchining publitsistik tafakkuri va badiiy iste’dodi chambarchas bog‘liqlikda o‘ziga xoslik kasb etadi. Bu esa yozuvchi publitsistikasining jonliligi, jozibadorligini ta’minlab beradi. “Esselardagi ijodkor shaxsiga, umuman, inson zotiga yondashuv usuli, tarzi zamonaviy adabiyot uchun prinsipial ahamiyatga ega. Shaxsiga ijtimoiy yondashuv ustivor bo‘lgan kezlarda asarda personajning ijtimoiy mavqei, hodisalarning sotsial mohiyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etar edi”. Aynan mana shunday xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan esselarni yozuvchi publitsistikasida uchratish mumkin. Masalan, Ibrohim G‘afurov, Tal’at Solihov, Mahmud Sa’diy, Sulaymon Azimov haqidagi esselari shular jumlasidan. Xurshid Do‘stmuhammadning mazkur qator esselarida juda ko‘plab barqaror birikmalarni idrok etishimiz mumkin. Yozuvchi inson xarakteri va holatini aynan shu tarzda yanada yorqinroq ko‘rsatib berishga harakat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Дўстмуҳаммад Х. Нажот нафратдами ё... муҳаббатда // Тафаккур, 1996. № 1. – Б.77.
2. Дўстмуҳаммад Х. Ҳаракатдан тўхтаган жараён қиссаси //Жаҳон адабиёти, 2004.
3. Нишонов Ҳ. Адабиёт йўқ дегани – ҳаёт тўхтади дегани! // Маърифат, 2001 йил 17 март.
4. Норматов У. Ижод ва шижоат. Сўзбоши ўрнида // Ижодни англаш бахти. – Тошкент: Шарқ, 2004.
5. Стюфляева М. Поэтика публицистики. – Воронеж: Воронеж. ун-т, 1975.
6. Худойқулов М. Журналистика ва публицистика // Тафаккур, 2011.

7. ЎзМТРК. Ўзбекистон телерадио канали «Бедорлик» адабий эшиттириши, 2014 йил.

8. Қурбонова С. Ёзувчи публицистикасининг ривожланиш хусусиятлари: филология фанлари номзодлиги диссертацияси. –Тошкент, 2010.

9. Қурбонова С. Муаллиф нуқтаи назари таҳлилда кўринади // Ёзувчи Х.Дўстмуҳаммад билан суҳбат, 2016.

10. Қосимова Н. Тошпўлатова Н ва бошқалар. Босма ОАВ таҳририятлари учун: ўқув қўлланма. – Тошкент, 2019.